

ALISHER NAVOIY IJODIDA MA’NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLAR VA
ULARNING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O’RNI

podpolkovnik Axmedov Farxod Saydaliyevich

Malaka oshirish instituti Kasbiy tayyorgarlik fakulteti

Maxsus fanlar sikli o’qituvchisi

Farxodaxmedov486@gmail.com

+99899 8226327

Anotasiya: Mazkur maqolada buyuk mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiyning ijodiy-ma’naviy merosida aks etgan ma’naviy-axloqiy qadriyatlar hamda ularning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati tahlil etiladi. Navoiy asarlarida insonparvarlik, halollik, adolat, mehr-oqibat, ilm-ma’rifatga intilish, kamtarlik, vatanparvarlik va ezgulik kabi yuksak axloqiy fazilatlarning mazmun-mohiyati yoritib berilgan. Shuningdek, mutafakkirning inson kamoloti, komil inson tarbiyasi va jamiyat ma’naviy taraqqiyoti haqidagi qarashlarining bugungi yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashdagi o’rni ochib beriladi. Maqolada Navoiy merosidan ta’lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish, yoshlarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmatini shakllantirish imkoniyatlari ham ko’rib chiqiladi.

Kalit so’zlar: Alisher Navoiy, ma’naviy meros, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi, axloqiy fazilatlar, komil inson, insonparvarlik, adolat, halollik, vatanparvarlik, ilm-ma’rifat, milliy qadriyatlar, ma’naviy kamolot, tarbiya.

Аннотация: В данной статье анализируются духовно-нравственные ценности, отражённые в творческом и духовном наследии великого мыслителя и государственного деятеля Алишера Навои, а также их значение в воспитании молодёжи. В произведениях Навои раскрывается сущность таких высоких нравственных качеств, как гуманизм, честность, справедливость, милосердие, стремление к знаниям и просвещению, скромность, патриотизм и добродетель. Особое внимание уделяется взглядам мыслителя на совершенствование личности, воспитание совершенного человека и духовное развитие общества, а также их значению в духовно-нравственном воспитании современного молодого поколения. В статье также рассматриваются возможности эффективного использования наследия Навои в образовательном и воспитательном процессе, а также формирования у молодёжи уважительного отношения к национальным и общечеловеческим ценностям.

Ключевые слова: Алишер Навои, духовное наследие, духовно-нравственные ценности, воспитание молодёжи, нравственные качества, совершенный человек, гуманизм, справедливость, честность, патриотизм, знания и просвещение, национальные ценности, духовное совершенствование, воспитание.

Abstract: *This article analyzes the spiritual and moral values reflected in the creative and spiritual heritage of the great thinker and statesman Alisher Navoi, as well as their significance in the education and upbringing of young people. Navoi's works reveal the essence of such high moral qualities as humanism, honesty, justice, compassion, aspiration for knowledge and enlightenment, modesty, patriotism, and virtue. Particular attention is paid to the thinker's views on personal development, the upbringing of a perfect human being, and the spiritual progress of society, as well as their significance in the spiritual and moral education of the younger generation today. The article also examines the possibilities of effectively using Navoi's heritage in the educational and upbringing process and fostering young people's respect for national and universal human values.*

Keywords: *Alisher Navoi, spiritual heritage, spiritual and moral values, youth education, moral qualities, perfect human being, humanism, justice, honesty, patriotism, knowledge and enlightenment, national values, spiritual development, upbringing.*

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda yosh avlodni har tomonlama barkamol, ma'naviy yetuk va yuksak axloqiy fazilatlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash muhim ijtimoiy-pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, turli madaniy va axborot oqimlari yoshlar dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatayotgan hozirgi sharoitda ularning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalanishi, ezgulik, halollik, adolat, insonparvarlik, vatanparvarlik va mehr-oqibat kabi fazilatlarni shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada xalqimizning ko'p asrlik ma'naviy merosi, xususan, buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning boy ijodiy merosi muhim tarbiyaviy manba sifatida alohida o'rin tutadi.

Alisher Navoiy o'zining serqirra ijodi orqali inson va jamiyat, axloq va ma'naviyat, ilm va ma'rifat, adolat va ezgulik masalalariga chuqur munosabat bildirgan. Uning badiiy va ilmiy asarlarida insonning ma'naviy kamoloti, komil insonni tarbiyalash, yaxshi xulq-atvorni shakllantirish, ilm olishga intilish va jamiyatda ezgulikni qaror toptirish kabi g'oyalar yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Mutafakkirning “Xamsa”, “Mahbub ul-qulub”, “Lison ut-tayr”, “Hayrat ul-abror” kabi asarlarida ilgari surilgan axloqiy-ta'limiy qarashlar bugungi kunda ham o'zining tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotmagan.

Navoiy talqinida insonning haqiqiy kamoloti uning nafaqat bilimga ega bo'lishi, balki yuksak axloqiy fazilatlarni o'zida mujassam etishi bilan belgilanadi. U insonparvarlik, saxovat, qanoat, sabr, kamtarlik, adolat, halollik va rostgo'ylik kabi fazilatlarni ulug'lab, jaholat, yolg'onchilik, manmanlik, ochko'zlik va adolatsizlik kabi illatlarni qoralaydi. Shu jihatdan Navoiy merosi yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini boyitish, ularda ijobiy axloqiy sifatlarni shakllantirish hamda hayotiy faoliyatida ezgu qadriyatlarga amal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun katta imkoniyat yaratadi.

O'zbekiston ta'lim-tarbiya tizimida milliy-ma'naviy merosdan samarali foydalanish, yosh avlodni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ma'naviy-axloqiy immunitetini mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Alisher Navoiy ijodidagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni chuqur o'rganish va ularni

zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Muxtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev Qozog‘istonda Alisher Navoiy haykalining ochilish marosimida: “Buyuk faylasuf va insoparvar shoir Alisher Navoiyning ijodiy merosi nafaqat o‘zbek xalqiga, balki butun dunyoga tegishli noyob boylikdir. Navoiy asarlari XVI asrdayoq italyan va nemis tillariga tarjima qilingan bo‘lsa, bugungi kunda dunyoning deyarli barcha tillarida yangramoqda. Asrlar davomida hayotning o‘ziga xos ensiklopediyasi bo‘lgan uning ijodi millionlab insonlarni hayratga solib, ruhlantirib kelmoqda” – deya ta’kidlaydi. [Mirziyoev, Qozog‘istonda Alisher Navoiy haykalining ochilish marosimida so‘zlagan nutqidan. 2024-yil 8-avgust]

O‘zbekistonning istiqboli, taraqqiyoti va ravnaqi yoshlarimizning ma’naviy-axloqiy barkamolligi, aqliy salohiyatining yetukligiga ham bevosita bog‘liqdir. Bu Sharq ijtimoiy-falsafiy, ma’naviy-axloqiy tafakkur taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan mutafakkir va allomalar ma’naviy merosini o‘rganish va undagi axloqiy g‘oyalarni yoshlarimiz ongiga singdirish muhimligidan dalolat beradi. Shunday mutafakkirlardan biri Alisher Navoiy bo‘lib, u o‘zbek adabiyoti asoschisi, faylasuf va axloqshunosdir. Shuning uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev – Alisher Navoiy bobomiz xotirasiga ehtirom ko‘rsatish, ul zotning tabarruk merosini o‘rganish, yosh avlodimizga bezavol yetkazish zarurligini ta’kidlaydi. [Mirziyoyev, 2017:69]

Navoiy asarlarining g‘oyaviy tarbiyada tutgan muhim o‘rni uning komil insonni, bugungi kun nuqtai nazari bilan aytganda, barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyati bilan belgilanadi. Komil inson masalasi qadimgi davrdan bashariyatni qiziqtirib, u haqidagi ma’lumotlar og‘zaki va yozma manbalarda, mifologiyaga bag‘ishlangan asarlarda, mutafakkirlarning ijtimoiy-falsafiy merosi va badiiy adabiyotda saqlanib kelgan. Komil insonni voyaga yetkazish asrlar mobaynida kishilarning orzusi, istagi bo‘lib kelgan. U to‘g‘risidagi tushuncha va tasavvurlar turli davrlarda turlicha talqin qilingan. Komillik to‘g‘risidagi fikrlarning evolyusiyasi, takomillashuvi, uning qanday bo‘lishi tuzumning xarakteri, ishlab chiqarish darajasi, davlatni boshqarish uslubi, ilm-fan va madaniyatning rivojiga bog‘liq bo‘lgan. [Komilova. M. "World of Philology" Scientific Journal / ISSN 2181-3620 Volume 1 Issue 2 / December 2022]

She’riyat mulkining sultoni Nizomiddin Mir Alisher G‘iyosiddin Bahodir o‘g‘li “Navoiy” taxallusi bilan o‘zbek adabiyotining yangi davrda yuqori bosqich sari olib chiqqan, O‘rta Osiyo Uyg‘onish davrining yorqin vakili, ulug‘ mutafakkiri sifatida tarix zarvaraqlaridan joy olgan favqulodda shaxsdir. Shoir yashagan davr XV-XVI asrlar Markaziy Osiyoda Uyg‘onish davrining so‘ngi pallasi bo‘ldi. Navoiy yashagan davrni buyuk sohibqiron Amir Temur va boshqa temuriy sultonlarning faoliyatidan ayri holda yoritib bo‘lmaydi. Zero, Alisher Navoiy yashagan zamonda mamlakatda tinchlikosoyishtalik va farovonlik hukm surishida, madaniyat, ilm-fan va san’atning rivoj topishida temuriyzodalarning o‘rni beqiyos.

Shuningdek, komil inson g‘oyasi o‘z mohiyat-e’tibori bilan milliy, umuminsoniy va gumanistik mazmunga egadir. Har bir jamiyat yetuk, har tomonlama kamolga yetgan, o‘zida butun ijobiy, oliyjanob fazilatlarini to‘plagan barkamol avlodni tarbiyalashni orzu qiladi. Alisher Navoiy komil inson to‘g‘risida butun bir ta’limot yaratdi. Uning nasriy va nazmiy

asarlari, gʻazallari, Xamsaga kirgan dostonlari, “Nasoyim ulmuhabbat”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, “Mahbub ul-qulub”, “Majolis un-nafois”, “Lison ut-tayr” va boshqalarda komil inson qanday boʻlishi kerakligi, qaysi fazilatlarni egallashi lozimligi haqidagi fikrlar har tomonlama yoritib berilgan. Navoiyning komil inson taʼlimoti negizini tabiat, inson va Allohga boʻlgan muhabbat belgilaydi. U paygʻambarlar, aziz avliyolar, piru komillar, orifu soʻfiylar toʻgʻrisida soʻz yuritganda, gʻazal va ruboiylarida tabarruk zotlarning xislatu fazilatlari haqida ishqmuhabbat bilan yozgan.

Mutafakkir paygʻambarlar, avliyo va oriflarni, yirik karomat sohiblarini komil insonlar qatoriga qoʻshadi. Bunday zotlar doimo xalq gʻamida yashaydilar, atrofdagilarga mehr-muruvvat koʻrsatib, bevabechoralarga yordam beradilar. Barkamol zotlar insonlarning eng aʼlosi boʻlib, butun umr poklanish va Haq yoʻlini ixtiyor qilgan kishilardir. Ulugʻ mutafakkirning “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” dostonida ham tasavvuf taʼlimoti nuqtai nazaridan badiiy timsollarni talqin qilish muhim oʻrin egallaydi. Dostonda Farhod va Shirin, Layli va Majnun oʻrtasidagi sevgi-muhabbat majoziy ishq, yaʼni Shirin, Laylilar siymosida Allohga boʻlgan ishq bir-biri bilan bogʻlanib ketgan. Unda zohiriyliksiz ilohiy ishqqa, dunyoviyliksiz Haqqa yetishib boʻlmazligi toʻgʻrisida fikr yotadi.

Navoiy nazarida insonni sharafllovchi jamiki fazilatlarni komil inson gʻoyasini ustuvor jihatlari deb kiritish mumkin. Ammo bular orasida u imon, qanoat, saxovat, ilm-maʼrifat, vafo, himmat, xoksorlik, adolat, adab kabi sifatlarni ajratib olib, qariyb hamma asarlarida qayta-qayta turli voqealar tasviri munosabati bilan taʼkidlab oʻtgan. Bu sifatlarni nainki odamni ulugʻvor, fozil va moʻtabar etadi, balki Ilohga yaqinlashtiradi, ilohiy xislatlarga moyil qiladi, deydi ulugʻ mutafakkir. Bu axloqiy talablar Navoiy davri mafkurasidan kelib chiqadi, aniqrogʻi asrlar davomida ishlangan, qoidaga kiritilgan, taʼlim-tarbiyaga singdirilgan gʻoyalardir. [Komilov, 2005:21]

Taʼkidlash kerakki, Alisher Navoiy asarlarining ustuvor tamoyillari haqida yakuniy soʻz sifatida shuni aytish mumkinki, Navoiy merosining yosh avlod tarbiyasida, bugungi kunni barkamol insoni sifatida quyidagilarni koʻrsatish mumkin: birinchidan, Navoiy nazarida komil inson, yaʼni har qanday kamchilik va nuqsonlardan xoli boʻlgan barkamol shaxs hayoliy bir timsol emas, balki oʻzida butun zohiriy va botiniy bilimlarni, insoniy fazilatlarni mujassam etgan real hayotda bor kishi. Ikkinchidan axloqiy poklik, nafsni tiyish, jabr-zulm, adolatsizlik, haqsizlik singari hayot qiyinchiliklariga qarshi kurashish Farhod insonparvarligining oʻzagini tashkil qiladi va komil inson sifatida shakllanishining asosi boʻlib xizmat qiladi. Unda naqshbandiylik tariqatining, futuvvat, yaʼni javonmardlik oqimining taʼsiri seziladi. Uchinchidan, shoʻrolar davrida Navoiy dostonlaridagi ikki yoshning bir-biriga muhabbati faqat dunyoviy, zohiriy nuqtai nazardan talqin qilindi, vaholanki, komil inson va barkamol avlodni tarbiyalash toʻgʻrisidagi taʼlimotlarni tahlil qilganda, uning dunyoviy va ilohiy, zohiriy va botiniy jihatlari, ularning bir-biri bilan chambarchas bogʻliqligini yoritish zarur masalalardan biridir. Inson yuksak fazilatlar va qadriyatlarni egallamasdan, oʻzida insonga muhabbat tuygʻusini shakllantirmasdan, xulqli, odobli, insonparvar, vatanparvar boʻlmazdan turib yetuk shaxs, komil inson boʻlib yetishuvi mumkin emas.

Alisher Navoiy xalqqa ish bilan ham, so‘z bilan ham, ko‘ngil bilan ham foyda keltirish kerakligini aytadi, xalq manfaatini o‘ylaydigan, xalqning baxt-saodati uchun kurashadigan kishilarni haqiqiy inson deb biladi. Kishilar g‘amida bo‘lish, yaxshilik qilish, muruvvat ko‘rsatish bu buyuk zot hayotining mazmuni bo‘lgan. Uning qabrida shunday so‘zlar bitilgan: “Shohi g‘aribon”, ya’ni g‘ariblar, yolg‘izlar, faqirlar shohi. Navoiy sahovat va muruvvatda benazir inson bo‘lgan. O‘zining joylardagi yersuvlari, mol-mulkalaridan kelgan daromadlarini to‘laligicha xayriya ishlariga sarflagan. Hazrat Navoiy saxiylikni insonparvarlik va komillikning muhim xislati deb biladi. Odamiylik insonni inson qiladigan, uni boshqa tirik mavjudotlardan ajratib turadigan nodir fazilatdir. Navoiy asarlarida chinakam insonparvar, mard va qahramon yigit sifatida “Farxod va Shirin” dostonidagi Farxod obrazini ko‘rsatadi. Ilm-fan bilan bolalikdan qiziqib kelgan Farhodni o‘z davridagi barcha hunarlarni o‘rganganligi, robotlar sistemasini yovuz kuchlarga qarshi qurol sifatida foydalanishi bugungi kun yoshlariga ham ayni damda amalga oshirishi kerak bo‘lgan ishlarini belgilab beradi.

O‘zbek milliy an‘analariga ko‘ra dardmandlarga malham topish, ojizlar va kambag‘allarning ko‘nglini ko‘tarish, yetimlar va beva ayollarga yordam, rahmshavqat qilish insoniylik jihatidan burchdir. Shoir bu haqda quyidagi misralarni yozgan:

“Kimki bir ko‘ngli buzug‘ning xotirin yod aylagay,
Oncha borkim, Ka‘ba vayron bo‘lsa obod aylagay”.

Demakki, bir muhtojning, noiloj, chorasiz qolgan odamning ko‘nglini ko‘tarish, dardiga malham topish savoblik darajasi jihatidan vayron bo‘lgan Ka‘bani qayta tiklashdan afzaldir.

Muxtasar qilib aytganda, mutafakkir ma‘naviy merosining yosh avlodni g‘oyaviy tarbiyasida tutgan o‘rni, inson tarbiyasi bilan bog‘liq o‘g‘itnasihatlar, fikr-mulohazalari, talab-ko‘rsatmalari, orzu-istaklarini bir yerga jamlab, ularni tartib bilan joylashtirib chiqsa, insoniy kamolotga erishish yo‘llari ko‘rsatilgan o‘ziga xos nazmiy dastur, qo‘llanma vujudga keladi. Navoiy asarlarining g‘oyaviy tarbiyadagi o‘rnini o‘rganar ekanmiz, g‘oyaviy tarbiyaning muhim vositasi bo‘lgan adabiyotning naqadar buyuk kuch va katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi!

Alisher Navoiy asarlarida ma‘naviy kamolot g‘oyasi markaziy o‘rin tutib, insonning ruhiy yetukligi va axloqiy barkamolligiga erishish yo‘llari yuksak badiiy mahorat bilan ifodalangan. Shoir o‘z asarlarida ilm-ma‘rifat, halollik, adolat, saxovat, sabr-qanoat kabi fazilatlarini targ‘ib etib, insonni komillik sari yetaklaydi. Uning asarlarida ilgari surilgan ma‘naviy tarbiya tamoyillari bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, yosh avlodning ahloqiy yetukligida muhim rol o‘ynaydi.

Shu boisdan quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

birinchidan, Navoiy ijodi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash – uning ma‘naviy merosini yanada chuqur o‘rganish va keng jamoatchilikka yetkazish uchun olimlar va tadqiqotchilar tomonidan yangi ilmiy ishlarni yaratish va chop etishga ko‘maklashish;

ikkinchidan, ta‘lim tizimida kengroq o‘rganish – maktab va oliy o‘quv yurtlarida Alisher Navoiy asarlaridagi ma‘naviy merosni chuqur o‘rganishga alohida e‘tibor qaratish;

uchinchidan, zamonaviy texnologiyalar orqali targ‘ib qilish – shoirning asarlaridagi ma‘naviy qadriyatlarni ommalashtirish maqsadida zamonaviy raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va multimedia vositalaridan keng foydalanish;

to‘rtinchidan, oila va jamiyatda targ‘ib qilish – Navoiy asarlaridagi ma’naviy saboqlarni oilaviy tarbiya jarayonida qo‘llash va jamiyatda odob-axloq qoidalariga rioya qilishga undovchi tashabbuslarni ilgari surish;

beshinchidan, Alisher Navoiy asarlarini soddalashtirilgan holda chop etish – yosh avlod va keng jamoatchilik uchun shoirning asarlarini zamonaviy tilda soddalashtirib nashr etish va tarqatish, ularning mazmunini ommaga tushunarli qilish;

oltinchidan, Navoiy merosiga bag‘ishlangan multimedia loyihalarini yaratish – shoirning asarlaridan ilhomlangan audio kitoblar, animatsion filmlar, hujjatli filmlar va teatr sahnalashtirishlari orqali uning ma’naviy g‘oyalarini yoshlar orasida ommalashtirish;

yettinchidan, maxsus to‘garaklar va klublar tashkil etish – o‘quvchilar va talabalarga Navoiy asarlaridagi ma’naviy qadriyatlarni chuqur o‘rganish imkoniyatini yaratish maqsadida maktablar, universitetlar va kutubxonalarda alohida to‘garaklar va ijodiy klublar tashkil etish.

sakkizinchidan, Navoiy g‘oyalari asosida motivatsion dasturlar ishlab chiqish – uning asarlaridagi saboqlar asosida yoshlarga motivatsiya beruvchi dasturlar, treninglar va seminarlar o‘tkazish orqali insoniy fazilatlarini shakllantirishga ko‘maklashish.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy ijodida mujassam bo‘lgan ma’naviy-axloqiy qadriyatlar bugungi kunda ham o‘z tarbiyaviy ahamiyatini saqlab qolgan. Ushbu bebaho merosni yoshlar ongiga chuqur singdirish, uni ta’lim va tarbiya jarayonida tizimli ravishda qo‘llash ma’naviy yetuk, axloqan barkamol, vatanparvar va jamiyat oldidagi mas’uliyatini anglaydigan yosh avlodni voyaga yetkazishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent. - O‘zbekiston. 2017. –B-69.
2. Sh.M. Mirziyoev. Qozog‘istonda Alisher Navoiy haykalining ochilish marosimida so‘zlagan nutqidan. 2024-yil 8-avgust.
2. N.Komilov. Xizir chashmasi. T. Manaviyat, 2005, –B-21.
3. M.Komilova. Alisher Navoiy ijodiy merosining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati. “World of Philology” Scientific Journal / ISSN 2181-3620 Volume 1 Issue 2 / December 2022.